

## NUMIZMATIKA

O’roqova Mubina Shoberdi qizi

Donayeva Gulnoza Abdumalik qizi

Eshqpo’latova Maftuna Zokir qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabaları*

**Annatatsiya:** *Numizmatika - qadimiy tanga - chaqa va medallarni tarixiy yodgorlik sifatida tekshiradigan fan hisoblanadi, havaskorlarning qadimiy tangalarni to’plashlari oqibatida asta - sekin tarix fanining alohida sohasi - numizmatika (lotincha -numisma - tanga so’zidan) paydo bo’lgan. Dunyodagi turli mamlakatlarning olimlari o’z hayotlarini numizmatikaga bag’ishladilar va muhim kashfiyotlar qildilar. Masalan: Ilmiy numizmatika qaror topishida Avstriyalik olimlardan Y.Ekkel’, E. Mader, Polyak olimi I.Peleven, Olmon olimi V.Renikman va Fransuz olimlari A.Aljel’ va R.Serryurlarning o’rni juda kattadir.*

**Kalit so’zi:** *Numizmatika, tarixiy yodgorlik, qadimiy tangalar, O’zbekiston, Tarixiy manbalar, Markaziy Osiyo, M.E.Masson, V.M.Massoy, G.A.Pugachenkova, E.A.Davidovich, O.I.Smirnova, B.I.Vayanberg, v.G.Dukonin*

**Аннотация:** *Нумизматика - наука, изучающая старинные монеты и медали как исторические памятники. В результате любителей коллекционирования старинных монет постепенно возникла отдельная область истории - нумизматика (от латинского слова -numisma - монета). Ученые разных стран мира посвятили свою жизнь нумизматике и сделали важные открытия. Например, большую роль в становлении научной нумизматики сыграли австрийские учёные Ю. Экель, Э. Мадер, польский учёный И. Пелевен, немецкий учёный В. Реникман, французские учёные А. Алгель и Р. Серрёр.*

**Ключевые слова:** *Нумизматика, исторический памятник, древние монеты, Узбекистан, Исторические источники, Средняя Азия, М. Э. Массон, В. М. Массой, Г. А. Пугаченкова, Е. А. Давидович, О. И. Смирнова, Б. И. Ваянберг, В. Г. Дуконин*

**Annotation:** *Numismatics is a science that examines ancient coins and medals as historical monuments. As a result of amateurs collecting ancient coins, a separate field of history - numismatics (from the Latin word -numisma - coin) has gradually emerged. Scientists from different countries of the world devoted their lives to numismatics and made important discoveries. For example: Austrian scientists Y. Eckel', E. Mader, Polish scientist I. Peleven, German*

*scientist V. Renickman and French scientists A. Algel' and R. Serreur have a great role in the establishment of scientific numismatics.*

**Key word:** Numismatics, historical monument, ancient coins, Uzbekistan, Historical sources, Central Asia, M.E. Masson, V.M. Massoy, G.A. Pugachenkova, E.A. Davidovich, O.I. Smirnova, B.I. Vayanberg, V.G. Dukonin.

## KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizning turli javhalarida tub islohatlar o'tkazilmoqda. Bu islohatlar zaminida mustaqil O'zbekistonni har tomonlama rivojlangan davlatga aylantirish dunyo davlatlari orasida uni salohiyati yanada ko'tarish mezoni yotibdi.

Albatta bunday jamiyat qilishni yosh avlodsiz ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Yosh avlod avvalo chuqur bilimga ega, ulartning ma'naviyat dunyosi keng bo'lmg'i lozim. Binobarin, Respublika ta'llim sohasida o'tkazilgan islohat zaminida xam aynan shunday qarashni ustivor yo'nalish sifatida qabul qilinishi bejiz emas. Islohatda jamiyat taraqqiyoti darajasida to'liq javob bera oladigan o'qitish uslub va yo'nalishlarini keng joriy qilishga alohida yotibor berilgan.

Tarix fakultetlarida "Numizmatika" fanini o'qitish talabalarning ilmiy-nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtirishda, o'z kasblarini mukammal egallahshlariga, ularning ma'naviy dunyosini bilishga, dunyo qarashlarini yanada kengaytirish barkamol inson, Vatan fidoysi bo'lib etishishiga xizmat qiladi. Shu bilan "Numizmatika" fani talabalarda dunyo xalqlari tarixi va madaniyatiga hurmat bilan qarash tuyg'ularini uyg'otadi.

Tarixiy manbalar orasida tangalar alohida o'rinni egallaydi. Ular boshqa manbalarga nisbatan ko'proq informativligi bilan ajralib turadi. Tangalar jamiyat hayotining turli tomonlarini yorituvchi ma'lumotlarni o'zlarida mujassamlashtirganlar. Ayniqsa, insoniyat tarixi va madaniyatini qadimdi davrlarni o'rganishda tangalarning ahamiyari beqiyosdir. Tavar ayriboshlash vositasi sifatida vujudga kelgan tangalar jamiyat iqtisodiy hayotini turli yo'nalishlarini yoritish bilan bir qatorida, siyosiy tarix bilan bo'qliq muammolarni oydinlashtirishda, tilshunoslik, sa'natshunoslik, me'morchilikni o'rganishda ham ularning o'rinnari juda salmoqlidir. Tangalar davlatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini ularning chegaralarini, shoxlarni nomlari va hukmronlik qilgan yillarini, davlat mafkurasini, halqaro madaniy va iqtisodiy aloqalarni, tabiatini, aholiusini, qishloq xo'jaligini, xunarmandchilik sohalarini, qurol-yaroq tarixini, kiyim-boshlarni o'rganishda muhim mazmun kasb etadi. Turli tarixi va arxeologik yodgorliklarni yoshini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Tangalar qadimgi sa'natni rivojlanish yo'llari aniqlashda qimmatli manba bo'lishi bilan birga, tangalar ham noyob sa'nat asarlari hisoblangan. Binobarin ular insonning ma'naviy dunyosini o'rganishda xam katta ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyoda shu jumladan O'zbekiston tavar ayriboshlash erta rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Xalqimizda ilk bor tangalarni milloddan oldingi III-ming yillik o'rtalarida tanishgan. Milloddan oldingi III asr dan boshlab esa u o'zining tangalarini muntazam zarb qilib kelmoqda. Xozir O'zbekiston numizmatikasi turli tarixiy davrlarga oid bir necha 100 mingdan ortiq tangalar kolleksiyalariga ega. Bebaho boylik hisoblangan bu tangalar xalqimizning teran tarixi, yuksak va shu bilan birga o'ziga hos bo'lgan madaniyatini, dunyosini o'rganishda katta ahamiyatga egadirlar.

Numizmatikani tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqalari kattadir. Bu fan halqlar tarixini o'rganishda qadimiy geografiyani, arxeologiya, qadimiy imloni, xronologiya va geraldikani (gerblar haqida) o'rganishda yordamchi fan tariqasida ayniqsa katta rol o'ynaydi.

O'zbekistonda numizmatikasini rivojlanishida o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan olimlar: M.E.Masson, V.M.Massoy, G.A.Pugachenkova, E.A.Davidovich, O.I.Smirnova, B.I.Vayanberg, v.G.Dukonin va boshqalar. Bugungi kunda o'zbek Numizmatikasi oldida turgan alohida vazifalari va muommalari kattadir. O'zbek davlatchiligi tarihini o'rganishda qadimiy tangalarning o'rni benihoyat kattadir, shunday qilib bu numizmatika fani tangalar haqidagi fan: tangalarning tasvirlari, yozuvlari, og'irligi, qanday metalldan yasalgaqligi, pul muomalasidagi darajasi va tanga zarb qilinishi tarihini urganadi.

Numizmatika hronologiya, moddiy madaniyat, ichki va tashqi savdo tarihi masala-larini tekshirishga imkon beradi. Tarih, arxeologiya, paleografiya, san`at tarihi, siyosiy iqtisod, etnografiya fanlari uchun katta ahamiyatga egadir. Numizmatika tushunchasi yana qog'oz pullarni o'rganish (bonistika) va medal, jeton, orden, hamda znachoklarni o'rganish ham kiradi. (Faleristika) metall pullar paydo bo'lguna qadar pul vazifasini har hil tovarlar: hayvonlar, taqinchoqlar, metal qurollar va quymalar bajargan, jamiyatning iqtisodiy tomonidan rivojlanshi, savdoni o'sishi pulga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqardi. Faqat davlat boshliqlarigina tanga chiqarish huquqiga ega edi. Birinchi metal tangalar miloddan avvalgi VII asrga Kichik Osiyoning Lidiya davlatiga zarb qilingan.

O'rta Osiyoda birinchi tangalar (kumushdan) miloddan avvalgi III asrda chiqarilgan. Uning yuza qismi (AVERSI)ga podshoning surati, orqa tomoni (REVERSI)ga esa har xil hudolar, muqaddas hayvonlar tasviri solingan yoki

podsholarning nomi yozilib, tamg'asi tushirilgan. Qadimgi tangalar muayyan og'irliklarga chiqarilgan, lekin pul islohotlari ta'sirida tez - tez uzgarib to'rgan.

Birinchi tangalar kumush va oltin aralashmasi elektrdan yasalgan bo'lsa, keyinchalik oltin kumush, mis va har hil metallarning aralashmalaridan ham ishlangan.

Tanganing ogirligini va metallini aniqlash iqtisodiy hayotdagi qator voqealarni tiklashga, tanga topilgin joylarning topografiyasini o'rganish esa pul muomalasi doirasini, qadimgi savdo yullari yo'nalishi, ayriboshlash tarkibini yoritishga yordam beradi. Numizmatika fani numizmatik kolleksiyalardan farq qiladi. Tangalarni kolleksiya qilish esa XIV-XV asrlarda Italiyada paydo bo'lgan. Ilmiy Numizmatika fani XVIII asrning ikkinchi yarmida Venalik I.Okkel tomonidan asoslab berilgan.

Numizmatika shartli ravshda antik davr Vizantiya, Sharqi, Osiyo va Afrika mamlakatlarida, SHuningdek O'rta Osiyo, Kavkaz, Rim, Volga bo'yida o'rta asrlarda chiqarilgan tangalarni o'z ichiga oladi. (G'arb tangalariga G'arbiy Yevropa hamda AQSH, Kanada va Lotin Amerikasi mamlakatlarida o'rta asrlarda, yangi va eng yangi davrlarga chiqarilgan tangalarni o'rganyadi) va Rossiya Numizmatikasiga bulinidi. Numizmatika antik tangalarning tasvir va yozuvlarini o'rganishdan boshlangan. Antik davr Numizmatikasini o'rganuvchi numizmatlari G.K. Keller, A.V.Oreshnikov, A.N.Zograflardir. Shimoliy Qora dengiz buyi davlatlari tangalarini o'rganganlar. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Vizantiya Numizmatikasi alohida ajralib chiqadi. Vizantiya Numizmatikasining rivojlanishiga rus numizmatlari I.Tolstov katta hizmati bor. (SHarq numizmatikasiga D.Fren asos solgan. Undan tashqari Sharq numizmatikasini, ayniqsa, O'rta Osiyo davlatlari tangalarini o'rganishda L.S.Savel'ev, A.Davidovich, O.I.Smirnovalar katta hissa qushganlar).

O'rta Osiyoda arxeologiya fanining ravnoq topishi Numizmatikaning yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Panjikentdan topilgan tangalar kompleksyi O.I.Smirnova tomonidan, qadimgi Samarqandan topilgan tangalar kompleksi T.S.Ernazarova tomonidan o'rganilishi natijasida Numizmatikaning yangi turi Sug'd Numizmatikasi paydo bo'ldi.

## XULOSA

O'rta Osiyoda birinchi yuritilgan pullar Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayin) davriga (eramizdan oldingi IV asrga) mansubdir. Iskandar Zulqarnayn vafotidan so'ng, uning imperiyasining Osiyo qismi, uning sarkardasi Salavka davlati tarkibiga kiradi. Salavkaning o'gli Antioh (280-261 yillarda) O'rta Osiyoda birinchi bo'lib pul chikarishni boshlagan.

Eramizdan oldingi III asr o'talarida O'rta Osiyoning janubiy rayonlarini, Afg'oniston va Hindistonning bir qismini o'z ichiga olgan Grek - Baqtriya

podsholigi tashkil topdi. Dastlabki davrlarda tangalar O'rta Osiyoning faqat grek aholisi orasidagina yuritilgan bulsa kerak, chunki bu paytda tub aholi hali pul - tovar muomalasi yuritishga ulgurmagan edi. Bu jarayon eramizdan oldingi III asr, ya`ni ikki mustaqil: Parfiya va Grek - Baqtriya podsholigi payado bo'lgan davrda boshlangan. deb tahmin qilish har holda haqiqatga hilof bulmasa kerak, deb hisoblaydi taniqli tangashunos olimlardan E.V.Zeymal va Y.V.Ritveledzelar Numizmatika fani ba`zan tarihning muhim sahifalari bo'lgan o'z zamonasining siyosiy - iqtisodiy tuzumlarini ochib beriShda va tarihiy hujjatlarda qayd kilinmayqol-gan voqealar, podsholarning hukmronlik qilgan yillarini va uning nomlarini anqlaShga juda katta rol' o'ynaydigan asosiy hujjat bulib hizmat qiladi. Ilk O'rta asr davrida Sharq musulmon davlatlarida zarb qilingan hamma tangalarga yerli hukmdor o'z nomi bilan birga halifa nomini ham qushib zarb qilgan. Chunki halifa hudoning yerdagi noibi eng oliy diniy va siyosiy hokimiyat ramzi hisoblangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak" Toshkent 1998yil
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" Tashkent 2008 yil
3. Elizavetin. G. "Pulnoma" Toshkent 1979 yil
4. Pidaev. Sh. "Tangalar davr ko'zgusi" Toshkent 1984yil
5. To'xtaev. I. "Tangalar tilga kirganda" Toshkent 1989yil
6. To'xtiev. I. "Amir Temur va temuriylarning moliya-pul siyosati" Toshkent 2006 yil
7. Numizmatiki O'zbekistana Toshkent 1990 .
7. Uktamovna, M. M. (2023, October). EPITET TARIXI VA NAZARIYASIGA BIR NAZAR. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 127-132).
8. Uktamovna, M. M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.
9. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.
10. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(8), 26-30 .
11. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.

12. Раҳмонов, М. (2023). ҲИС-ХАЯЖОН ВА САЛОМАТЛИК. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(15), 55-63.
13. Раҳмонов, М. (2021). СҮЗНИНГ САЛОМАТЛИККА ТАЪСИРИ. Scientific journal of the Fergana State University, (6), 42-42.